

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

BUXORO VILOYATIDA MADANIYAT MUASSASALARI VA TEATR JAMOALARI FAOLIYATI TAHLILI

Raxmatulloyev Umid Ashrafovich

Buxoro davlat universiteti, o'qituvchi.

e-mail: u.a.raxmatulloyev@buxdu.uz **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0006-6467-185X>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada 2000–2001-yillarda Buxoro viloyatida madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilgan tadbirlar hamda ularning aholi ma'naviy hayotidagi o'rni tahlil qilinadi. Unda "Buxoro Yulduzlari" sirk jamoasi faoliyati, IV Respublika milliy kinofestivalining o'tkazilishi hamda viloyat teatrlarida sahnalashtirilgan asarlarning mazmun-mohiyati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, kino va teatr san'atining yoshlar tarbiyasi hamda ma'naviy-ma'rifiy qarashlarni shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: madaniyat, san'at, qo'g'irchoq teatri, sirk, kino, festival, teatr, tadbirlar, musiqa, milliy kino, yoshlar tarbiyasi, milliylik.

АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧРЕЖДЕНИЙ КУЛЬТУРЫ И ТЕАТРАЛЬНЫХ КОЛЛЕКТИВОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Рахматуллоев Умид Ашрафович

Бухарский государственный университет, преподаватель.

Аннотация.

В статье анализируются мероприятия, проведённые в сфере культуры и искусства Бухарской области в 2000–2001 годах, а также их роль в духовной жизни населения. Рассматриваются деятельность циркового коллектива «Звёзды Бухары», проведение IV Республиканского фестиваля национального кино и идейно-содержательные особенности произведений, поставленных в театрах области. Особое внимание уделяется значению кино и театрального искусства в воспитании молодёжи и формировании её духовно-просветительских взглядов.

Ключевые слова: культура, искусство, кукольный театр, цирк, кино, фестиваль, театр, мероприятия, музыка, национальное кино, воспитание молодёжи, национальная самобытность.

ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF CULTURAL INSTITUTIONS AND THEATER GROUPS IN THE BUKHARA REGION

Raxmatulloyev Umid Ashrafovich

Bukhara State University, Lecturer.

Abstract.

This article analyzes cultural and artistic events held in the Bukhara Region in 2000–2001 and their role in the spiritual life of the population. It examines the activities of the "Bukhara Stars" circus group, the organization of the Fourth Republican National Film Festival, and the content and ideas of works staged in regional theaters. Particular attention is paid to the significance of cinema and theatrical art in the education of young people and the formation of their spiritual and educational outlook.

Keywords: culture, art, puppet theater, circus, cinema, festival, theater, cultural events, music, national cinema, youth education, national identity.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki yillaridan O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, milliy madaniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda aholining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur jarayon Buxoro viloyatining madaniy hayotida ham o'zining yaqqol ifodasini topdi. Ayniqsa, 2000–2001-yillarda viloyat hududida sirk, kino va teatr san'ati bilan bog'liq qator tadbirlarning tashkil etilishi madaniy hayotning rang-barangligini ko'rsatadi. "Buxoro Yulduzlari" sirk jamoasining yubiley tadbiri va Respublika IV milliy kinofestivalining Buxoroda o'tkazilishi viloyatning madaniy jarayonlardagi faol ishtirokidani dalolat beradi. Shu bilan birga, teatr sahnalarida ijtimoiy-ma'naviy mazmundagi asarlarning namoyish etilishi san'atning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanilganini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, 2001-yilda Buxoro viloyatida amalga oshirilgan madaniy tadbirlarni o'rganish mustaqillikning dastlabki davrida viloyat madaniy hayotining rivojlanish xususiyatlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Muhokama va natijalar. Buxoro viloyat qo'g'irchoq teatri jamoasi 2000-yilda o'zining sarmahsul ijodi bilan xalq ko'nglidan munosib joy oladi. Jumladan, 27-mart — Xalqaro teatr kuni munosabati bilan yosh tomoshabinlar uchun yangi premjera — Yefem Chepovechkiyning "Yashavor Misik" pyesasini namoyish qilib, tomoshabinlarning olqishiga sazovor bo'ladi [1].

Musiqashunoslarning fikricha, O'zbekiston hududida qo'shiqchilik to'rtta mahalliy uslubdan: Buxoro–Samarqand, Qashqadaryo–Surxondaryo, Toshkent–Farg'ona va Xorazm uslublaridan tashkil topgan. Buxoro–Samarqand uslubi o'zbek va fors-tojik musiqiy madaniyatining birligi bilan ifodalanib, u "Shashmaqom" an'analariga, mavrigixonlik, buxorcha xalq termalari va laparlari bilan ajralib turadi. Viloyat musiqa bilim yurtida 2000-yillarda "An'anaviy ijrochilik" yo'nalishi bo'lib, u faqat bir maqom ijrochiligi yo'nalishida faoliyat olib borgan. Shu davrda an'ana tarziga kirgan muammo shunda bo'lganki, yosh qo'shiqchilar tomonidan yevropacha, eroncha, turkcha, hindcha musiqalarga o'zbekcha so'zlarni qo'shib ijro qilish ortib borgan [2]. Buni mahalliy ijrochilarning o'sha paytda mashhur bo'lgan xorijiy musiqalardan ta'sirlanishi desak, to'g'ri bo'ladi. Achinarlisi, xorijiy musiqalarning kirib kelishi ajdodlardan qolgan boy meros, laparlar, xalq termalarining unutilib borishidek muammoga sabab bo'lishiga biroz qo'shtirnoq ortidan qaralgan yoki yetarli e'tibor berilmagan, degan xulosaga kelishga sabab bo'ladi.

Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi tashabbusi bilan 1999-yilda Toshkentdagi Fransuz madaniy markazi huzurida "Alyanz Fransez" teatr guruhi tashkil etiladi. Teatr jamoasi 2000-yilning iyun oyida Buxoroga safari chog'ida "Karolin xo'jaligi" nomli spektaklni namoyish etadi. Viloyat teatrida sahnalashtirilgan ushbu spektakl to'liq fransuz tilida olib boriladi [3]. Yuqorida ta'kidlangan ba'zi muammolar bo'lganiga qaramay, viloyatda xalqaro madaniy aloqalar doimiy ravishda amalga oshirib borilgan. Fransiya bilan 2000-yilda amalga oshirilgan bunday teatr jamoasining tashrifi esa buning yorqin dalilidir.

Buxoroda 2000-yilning 2–6-avgust kunlari o'zbek milliy filmlari III respublika festivali bo'lib o'tadi. Festival doirasidagi qo'shimcha ijodiy uchrashuvlar viloyatdagi G'ijduvon tumani Mirzo Ulug'bek nomli kinoteatrda, Jondor, Vobkent va boshqa tumanlarda tashkil etilib [4], 50 dan ziyod ijodiy uchrashuv va safarlar tashkil etildi. Festivalda jami 30 dan ziyod nominatsiya bo'yicha bellashgan kino ustalari taqdirlanadi [5].

Viloyatda 1981-yilda tuzilgan va xalqning ko'nglidan munosib joy olgan "Buxoro Yulduzlari" sirk jamoasi 2001-yilda tashkil topganining 20 yilligi munosabati bilan Buxoro shahridagi Somoniylar madaniyat va istirohat bog'ida katta yubiley konsertini taqdim etadi. Jahongir Ramazonov rahbarligidagi jamoa o'z chiqishlari bilan xalqning hurmatiga sazovor bo'ladi [6]. Bundan tashqari, shu yilning 17–21-avgust kunlari Buxoroda Respublika IV milliy kinofestivali ham bo'lib o'tadi. Mazkur festivalda 30 ta hujjatli film namoyish etiladi. Keyingi kunlardagi tadbirlarda festival ishtirokchilari viloyatdagi tumanlar bo'ylab tarqalib, turli kinolarni namoyish qiladilar [7]. Ularga misol qilib "Oyijon", "Chayongul", "Pari momo", "Baxt qadri", "Meshpolvon" kabi filmlar va "To'ti", "Baxt o'zi nima?" kabi multfilmlarni aytish mumkin [8]. Yuqoridagi 5 ta hujjatli kino "O'zbekkino" DAK tomonidan suratga olingan kinolar edi [9]. 2001-yilda kinovideofilmlarni ijaraga berishdan tushgan daromad 75 194 mln so'mni tashkil etgan. "Oyijon", "Chayongul", "Pari momo", "Baxt qadri", "Meshpolvon" kabi filmlar va multfilmlar to'plamlarining video variantlari ko'paytirilib, viloyatlarga tarqatilgan [10].

Shu yili S. Ayniy nomidagi viloyat musiqali drama teatrida Olotlik yosh adib Abdunabi Hamro qalamiga mansub "Oq ajal changalida" deb nomlangan drama sahnalashtiriladi. Sahna asarining maqsadi yoshlarni giyohvandlik balosi domiga tushib qolishdan saqlash, uning ayanchli oqibatlaridan ogoh qilishga qaratilgan edi [11].

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2001-yilda Buxoro viloyatida madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilgan tadbirlar aholining ma'naviy-estetik ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda, milliy madaniy merosni asrab-avaylash va uni keng ommaga yetkazishga ham xizmat qilgan. Xususan, "Buxoro Yulduzlari" sirk jamoasining 20 yillik faoliyati munosabati bilan o'tkazilgan yubiley tadbiri jamoaning viloyat madaniy hayotidagi o'rnini ko'rsatib, xalq bilan san'at jamoalari o'rtasidagi uzviy aloqa shakllanganidan dalolat beradi. Respublika IV milliy kinofestivalining Buxoroda o'tkazilishi esa viloyatning nafaqat mahalliy, balki respublika miqyosidagi madaniy jarayonlarda ham faol ishtirok etganini ko'rsatadi. Filmlarning tumanlarga ham olib borilib namoyish etilishi madaniy-ma'rifiy tadbirlarning markazdan chekka hududlarga yetib borishini ta'minlagan va aholining kino san'atidan bahramand bo'lish imkoniyatlarini kengaytirgan. Viloyat madaniyat muassasalari tomonidan 2001 – yilda o'tkazilgan madaniy – ma'rifiy va ommaviy tadbirlar to'g'risida ma'lumot[12].

Nº	Shahar, tuman, teatrlar	O'tkazilgan tadbirlar soni	Tomoshalarda qatnashganlar soni
1	Buxoro tumani	1500	305706
2	Vobkent tumani	2085	403034
3	Jondor tumani	857	94500
4	Kogon	506	38610
5	Shofirkon	1782	521534
6	Romitan	381	26428
7	Qorako'l	1764	827836
8	Olot	1100	187523
9	G'ijduvon	2447	573180
10	Peshko'	920	96330
11	Qorovulbozor	154	65000
12	Buxoro shahri	1731	543326
13	Kogon shahri	226	72008

14	S.Ayniy viloyat teatri	239	142200
15	Viloyat qo'g'irchoq teatri	85	48400
16	"O'zbeknavo" viloyat bo'limi	160	34300
Jami:		16037	3979915

Yuqoridagi jadvaldan xulosa qiladigan bo'lsak 2001 – yilning o'zida viloyatda 16 mingdan ortiq turli darajadagi bayram va tadbirlarning tashkil etilganligi va ushbu tadbirlarda to'rt millionga yaqin aholining qatnashganligi viloyatda aholi uchun yaxshi madaniy xizmatlar ko'rsatilganini bildiradi. Ayniqsa aholiga shu kabi madaniy xizmat ko'rsatishda tumanlarning faolligi quvonarli holdir.

2001 – yilda viloyat teatr jamoalarining hisobot ko'rsatkichlari[12].

S.Ayniy nomli viloyat musiqali drama teatri						
Dekabr oyi ko'rsatkichlari				Yil boshidan		
	Reja	Haqiqatda	Foizda	Reja	Haqiqatda	Foizda
Tomoshabinlar	8.4	19.0	226	134.7	142.2	105
Tadbirlar	25	82	328	316.3	239.8	76
Daromad	420.0	1271.3	288	4600.0	7414.9	161
Boshqa tushumlar	50.0	81.9	–	–	–	–
Viloyat Qo'g'irchoq tetari						
Dekabr oyi ko'rsatkichlari				Yil boshidan		
	Reja	Haqiqatda	Foizda	Reja	Haqiqatda	Foizda
Tomoshabinlar	9.9	20.5	207	79.2	40.4	51
Tadbirlar	44	25.0	57	352.0	85.0	24
Daromad	182.0	859.7	472	1470.0	1698.5	115
Boshqa tushumlar	–	–	–	–	–	–
"O'zbeknavo" davlat estrada birlashmasi viloyat bo'limi						
Dekabr oyi ko'rsatkichlari				Yil boshidan		
	Reja	Haqiqatda	Foizda	Reja	Haqiqatda	Foizda
Tomoshabinlar	2.0	2.2	110	29	34.3	118
Tadbirlar	10	13	130	120	160	133
Daromad	564.0	566.4	100	5829.0	5980.6	102
Boshqa tushumlar	–	–	–	–	–	–

2001-yilda "O'zbekkino" DAK tomonidan yil davomida 2,7 mln tomoshabinga filmlar namoyish qilingan. Ushbu filmlardan jami 142 mln daromad tushumi, tarmoq pullik xizmatlari hisobiga esa 57 mln daromad tushumi amalga oshirilgan va ushbu olingan daromadlar viloyatlardagi kinostudiyalarga kinouskunalar olish uchun yo'naltirilganligi, ushbu summa uskunalar bo'lgan ehtiyojlarni qoplash uchun yetarli bo'lmaganligi ta'kidlanadi [13]. Shu yilda "O'zbekkino" DAK tarkibida respublika bo'yicha jami 90 dan ortiq ro'yxatga olingan aksiyadorlik jamiyatlari mavjud bo'lgan. Aksiyadorlik jamiyatlari Andijonda 15 taga, Namanganda 12 taga, Sirdaryoda 1 taga, Toshkent shahrida esa 4 taga kamaygan. Avval tuzilgan ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarining 87 tasi mulkchilik shaklini mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga aylantirgan va respublikaning Jizzax, Navoiy, Farg'ona, Xorazm viloyatlarida AJlar qolmagan. Buxoro viloyatida esa shu davrda "Buxoro kinovideo" AJ tashkil etilgan bo'lib, uning tarkibiga 11 ta aksiyadorlik jamiyati va 1 ta MChJ kiritilgan [14].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, 2000–2001-yillarda Buxoro viloyatida madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilgan tadbirlar aholining ma'naviy-madaniy hayotini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Sirk, kino va teatr san'atining turli shakllarda namoyon bo'lishi madaniy xizmatlarning mazmungan boyib borayotganini ko'rsatdi. Ayniqsa, kino va teatr orqali ijtimoiy-ma'naviy masalalarning yoritilishi san'atning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanilganidan dalolat beradi. Umuman, mazkur jarayonlar Buxoro viloyatida mustaqillikning dastlabki yillarida madaniyat muassasalari faoliyatining izchil davom etganini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ramazonov N. Qo'g'irchoq teatrida premyera // *Buxoro yangiliklari*. – 2000-yil 8-aprel. – № 15.

2. Jumayev J. Milliy qo'shiqchiligimiz unutilmasin // *Buxoronoma*. – 2000-yil 7-iyun. – № 46.
3. Xalilov A. Qo'g'irchoqlar isyoni // *Buxoronoma*. – 2000-yil 7-iyun. – № 46.
4. Festival bayrog'i ko'tarildi // *Buxoronoma*. – 2000-yil 5-avgust. – № 63.
5. Unutilmas san'at bayrami // *Buxoronoma*. – 2000-yil 9-avgust. – № 64.
6. "Buxoro yulduzlari"ning tabassumi // *Buxoronoma*. – 2001-yil 7-aprel. – № 15.
7. Assalom, kinofestival! // *Buxoronoma*. – 2001-yil 18-avgust. – № 66.
8. Buxoroda kino bayrami // *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*. – 2001-yil 17-avgust. – № 34.
9. O'zbekiston Milliy arxivi. M-115-fond, 1-ro'yxat, 354-yig'ma jild. – B. 3.
10. O'zbekiston Milliy arxivi. M-115-fond, 1-ro'yxat, 354-yig'ma jild. – B. 4.
11. Xalilov A. "Oq ajal changalida" // *Buxoronoma*. – 2001-yil 27-oktabr. – № 44.
12. O'zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro'yxat, 1037-yig'ma jild. – B. 24.
13. O'zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro'yxat, 1037-yig'ma jild. – B. 25.
14. O'zbekiston Milliy arxivi. M-115-fond, 1-ro'yxat, 354-yig'ma jild. – B. 2.
15. O'zbekiston Milliy arxivi. M-37-fond, 1-ro'yxat, 6219-yig'ma jild. – B. 62–63.